PEDAGOGIK AKSIOLOGIYANING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Xudayqulova Z. U., GulDU katta o‘qituvchi
Сатторова Камола., GulDU talabasi

Annotatsiya. Pedagogik aksiologiyaning shakllanish va rivojlanish xususyatlar yoritilgan. Ta’limga qadriyatli yondashuvning dolzarbligini aniqlovchi omillar,O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini modernizatsiyalashning qadriyatli yo‘nalishlari tahlili ketlirilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: Ta’lim, qadriyat, dolzarb, tizim, modernizatsiya, pedagogik paradigma, modeli, standart, nazariy , metodologik, konseptual model.

Abstract. Features of formation and development of pedagogical axiology are highlighted. We analyzed the factors that determine the relevance of the value approach to education, the value directions of the modernization of the education system of the Republic of Uzbekistan.

Basic words and expressions: Education, value, relevance, system, modernization, pedagogical paradigm, model, standard, theoretical, methodological, conceptual model.

Zamonaviy pedagogika fanining asosiy tendentsiyasi - uning shaxsni «anglash», o‘z dunyoqarashiga asoslanishga e'tibor qaratganligidir. Bu esa, zamonaviy pedagogik amaliyotning muhim jihatiga aylandi.

Pedagogika va inson amaliyotida insonparvarlik an'analarining rivojlanishi, uning hayotiy faoliyat jarayonida o‘z oldiga qo‘ygan muhim vazifalarni o‘zida aks ettiradi. Inson hayoti har doim bo‘lib o‘tgan voqealarni baholash, vazifalami qo‘yish, izlash, xulosalar qabul qilish, dunyoqarash vaziyatlarida kechadi.

Aksiologik muammolar bilan mil. av. V-VI asrlardayoq qadimgi yunon olimlari – Geraklit, Demokrit, Suqrot, Aflotun, Aristotellar shug‘ullana boshlagan.

Sharq mutafakkirlaridan Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf xos Hojib, Alisher Navoiylar inson hayoti, uning ta’lim va tarbiya olishi muhimligini o‘z asarlarida ko‘rsatib berish orqali pedagogik aksiologiyani tamal toshini qo‘yganlar.

Uzoq vaqtlar nazariy-pedagogik masalalar mustaqil tadqiqot sifatida emas, falsafa doirasida qarab kelingan. Biroq, Sharq mutafakkirlarining g‘oyalari ta’lim-tarbiya, ta’lim metodikasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, pedagogik fikrlar rivojida hal qiluvchi rol o‘ynagan. Misol uchun, X asrda Al-Xorazmiy tomonidan kuzatilgan voqea va hodisalarni tushuntirishda muntazamlilik, ketma-ketlik tamoyilini XIXasr oxrida Abdulla Avloniyning pedagogik asarlarida uchratish mumkin.

Shaxsga yo‘naltirilgan qadriyatli bilimlar ikki jihatga qaratilgan: ichki – shaxsiy muvoffaqiyatga erishish vositasi sifatida (Abu Rayhon Beruniy, Ali ibn Sino,Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy) va tashqi – o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini takomillashtirish vositasi sifatida (Yusuf Hamodoniy, Hoja

Xasan Andoqiy, Hoja Abdulloh Barraqiy (Barqiy), Hoja Ahmad Yassaviy, Hoja Abdulholiq G‘ijduvoniy Xojagon, Bahouddin Naqshband).

Qadimgi va o‘rta asrlarda shakllangan an’analar Sharq uyg‘onish davriga kelib o‘ziga hos ahamiyatga ega bo‘ldi. Ta’lim va tarbiya masalalari qaytadan ko‘rib chiqila boshlandi va ularni hal qilishning yangi yo‘llari izlab topildi. Insonparvarlik yo‘nalishiga ega bo‘lgan ta’lim mazmuniga qo‘yiladigan talablar o‘zgardi. Ustoz va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi munosabatlar o‘zgardi, faollik, o‘rganish jarayonida ta’lim oluvchilarning mustaqilligi qadriyati o‘sib bordi. Ta’lim oluvchining bilishga qiziqishini shakllantirish g‘oyasi rivojlandi. Mazkur davrda pedagogik g‘oyalar markazida bolaning individual rivojlanishi qo‘yilsa-da, biroq shaxs jamiyatga qarama-qarshi qo‘yilmagan. Bu bilan bog‘liqlikda ta’lim ijtimoiy taraqqiyot sharti sifatida belgilangan.

Buyuk olim va davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek esa, “bilim olishga intilish davlat ravnaqiga yo‘l demakdir”, - degan aksiomani ilgari surib, ta’limning aksiologik qadriyat statusini aniq belgilab bergan edi.

Keyinchalik ma’rifatparvar pedagog olimlar – Zavqiy, Avaz O‘tar, Dilshodi Barno, Furqatlarning, jadid pedagog olimlar – Mahmudho‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzodalar ta’limning davlat – jamiyat – shaxs rivojidagi integresiyasini o‘z qarashlari orqali ochib berishgan. Faqatgina XX asrning boshlaridan boshlab aksiologiya dastlab falsafaning alohida yo‘nalishi sifatida o‘rganila boshlandi. Bu harakatni 1902 yilda nemis olimi P.Lapi boshlab bergan. Shundan so‘ng Yevropa faylasuflari mazkur masalaga jiddiy e’tibor qarata boshladilar. O‘zbek olimlaridan J.Tulenov birinchilardan bo‘lib, qadriyatlar falsafasini tadqiq etgan. Keyinchalik faylasuf olimlardan E.Yusupov, S.Komilova, I.Karimovlar aksiologiyaning turli jihatlarini yoritishgan

XX asrning 80-yillaridan boshlab pedagogik aksiologiya ta’lim falsafasi sifatida tadqiqotlar sohasiga aylandi

O‘zbekistonda J.G‘.Yuldashev, R.Jo‘raev, S.Nishonova, R.Ibragimov, S.Madiyorova, R.Qodirova, A.Kaldibekova, A.Sulaymonov, Sh.Mardonov, T.Toshlonov, N.Egamberdieva, A.Muxsieva, o‘z tadqiqotlarini pedagogik aksiologiya nuqtai nazaridan yoritishga harakat qilganlar.

Umuman olganda, pedagogik aksiologiyaning shakllanish va rivojlanish jarayonida quyidagi **muhim natijalar** qo‘lga kiritilgan: ta’lim-tarbiyaga shaxsning ijtimoiy va kasbiy ijtimoiyillashuvini aniqlab beruvchi asosiy qadriyat sifatida qarash; qadriyatli fikrlashdan kelib chiqadigan individuallik; shaxsning individual rivojlanishi jarayonida uning umuminsoniy qadriyatlarga oshno etish orqali shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv; inson tomonidan shaxsiy erkinlik, burch, majburiyat kabi qadriyatlarni anglab olinishi lozimligi; shaxsiy erkinlik, burch, majburiyat kabi qadriyatlar har bir insonning o‘zi va u yashayotgan jamiyatdagi odamlar tomonidan tan olinishi, ya’ni har bir inson uchun qadriyatga aylanishi; ta’lim va tarbiyaga aksiologik yondashuv qadriyatli ong, munosabat, xulq-atvorni shakllantirishda katta ahamiyatga egaligi Ko‘rinib turibdiki, pedagogik aksiologiyaning rivojlanishida jahon va respublikamiz ta’limi tizimida o‘ziga xos omillar mavjud bo‘lib, ta’limiy

qadriyatlarning ijtimoiy, madaniy va tarixiy o‘zgaruvchanlik tamoyilini o‘zida aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xodjayev B.X. “Pedagogik aksiologiya” o‟quv qo‟llanma. T. “Fan va texnologiya”, 2011. - 156 bet.

2. Холов, О. Ч. (2018). А ктивность в стимулировании учебной деятельности. Вопросы педагогики, (2), 112-113.